

FRUIT YIELD OF BIEBERSTEINII MULTIFIDA D.C.

Islamova Zebiniso.Bustonovna

Samarkand State University e-mail: Zebo.oy@mail.ru ph.: +998913137139

Annotation: Qantepar (*Biebersteinia multifida* D.C) is distinguished by its medicinal properties. In folk medicine, a decoction of the root extract is used to stop bleeding. The *B.multifida* fruit is a stone, the percentage of fruiting is 75.5% in nature and 95.6% in the experimental zone. A large number of plant bushes were observed in the experimental field, significantly exceeding the number due to agrotechnical treatments.

Keywords: Qontepar, *Biebersteinia multifida* D.C, yield, stone fruits, seeds, phytocenosis, Experimental field, nature, Urgut, Samarkand, Aman-kutan.

BIEBERSTEINIA MULTIFIDA NING MEVA TUGISH HOSILDORLIGI.

Annotatsiya: Qontepar o'zining dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalq tabobatida ildiz ekstraktidan tayyorlangan damlama qon ketishini to'xtatishda qo'llaniladi. *B. multifida* ning mevasi ko'sakcha, meva tugish %i tabiatda 75,5% ni, tajriba maydonida esa, 95,6% ni tashkil etadi. Tajriba maydonida o'simlik tuplari soni ko'pligi, agrotexnika ishlovlari hisobidan ancha yuqoriligi kuzatildi.

Kalit so'zlar: Qontepar, *Biebersteinia multifida* D.C, hosildorlik, ko'sak meva, urug', fitosenoz tajriba maydoni, tabiat, Urgut, Samarqand, Omon qo'ton.

Meva tugish va urug' hosildorligini o'rganish bo'yicha tajribalar Omon – qo'ton va Yettiyliyoning fitotsenozi bo'yicha tajribalar qo'yilgan maydonlarida hamda Omon – qo'ton milliy tabiat bog'i, Urgut ixtisoslashgan o'rmon xo'jaligi hududlaridan ajratib olingan tajriba maydonlarida olib borildi.

Gullagandan va urug'langandan 13 - 15 kun o'tib, ginitseyning tugunchasi o'sib, rivojiana boshlaydi va yumaloq, yoki teskari – tuxumsimon shakldagi urug'li mevani hosil qila boshlaydi (1-rasm).



1-rasm. *B.multifida* mevasining tuzilishi.

O'simlik tabiiy ravishda asosan urug'lari va tiganaksimon ildizi bo'ynida hosil bo'lgan kurtaklari orqali ko'payadi. Kambag'al, och bo'z tuproqlarni afzal ko'radi.

Bizga ma'lumki, yovvoyi tabiatga o'suvchi juda ko'p o'simliklar ko'p sonly gullar hosil qiladi, ammo hamma gullardan ham meva hosil bo'lmaydi. Bu albatta turning evolyutsion

xususiyatlari va tashqi muhit omillarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq (N.A. Amirxanov, 1986). B. multifida ham ushbu sohada umuman o'rganilmagan. Shu munosabat bilan Biz tomonimizdan qonteparni meva va urug' hosildorligini o'rganish juda muhim ekanligi kelib chiqadi.

Biz, dastlab qo'ygan tajribalarimizda tabiatda va tajriba maydonida qonteparni meva tugish foyizini o'rgandik. Olingan ma'lumotlar 1- jadvalda keltirilgan.

1 – jadval

Biebersteinia multifida ning meva tugish foyizi tabiatda va tajriba maydonchasida (n=10)

O'sish joyi va sharoiti	Vaqti	Gullar soni, dona	Mevalar soni, dona	Meva tugish, %
Tabiat, Olichabuloq soy	2021	48,8	39,3	80,5
	2022	50,3	38,1	75,7
Tabiat, Toksoy	2021	52,3	44,5	85,1
	2022	39,8	32,7	82,2
Tabiat, Yettiulyisoy	2021	29,3	21,9	74,7
	2022	31,2	20,6	66,1
Tabiat, Qumbelsoy	2021	35,7	24,6	68,9
	2022	39,8	25,9	65,1
Umumiyl, ja'mi, tabiat o'rtacha	2021 – 2022	40,9	30,9	75,5
Tajriba, Omonqo'ton milliy tabiat bog'i	2020	30,2	28,5	94,4
	2021	33,5	32,4	96,7
	2022	45,9	43,7	95,2
Umumiyl, ja'mi, tajriba o'rtacha	2020, 2021, 2022	36,5	34,9	95,6

1 – jadvaldan ko'rinish turibdiki, qonteparning meva tugish foyizi turli soylar kesimida hamda tajriba maydonida turlicha. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, T.A. Robotnov bo'yicha normal tsenopopulyatsiya hisoblangan Olichabuloqsoy va Toksoyda meva tugish foyizi 75,7 – 85,1% ni tashkil etgan – o'rtacha 80,87%. Regressiv tsenopopulyatsiya hisoblangan Qumbelsoy va Yettiulyisoyda esa ushbu ko'rsatkichlar 65,1 – 74,7% ni tashkil etgan – o'rtacha 68,7%. Ushbu soylardagi bu holat, ya'ni qariyb meva tugish foyizining 12% dan ziyodroq kamligi fitotsenozdagi ko'pchilik o'simliklar ontogenez davrining subsenil va senil davriga o'tganligi bilan izohlanadi. Tajribalar o'tkazilgan to'rtta soydagagi qonteparning meva tugish foyizi o'rtacha 75,5% ni tashkil etdi.

B. multifida ning meva tugish foyizi, biz biologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida tajriba qo'ygan Omonqo'ton milliy tabiat bog'i hududidagi maydonchalarda ham o'rganildi. 1 – jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2020 yil vegetatsiyasining yettinchi yilida ushbu ko'rsatkich 94,4% ni, 2021 yilda ya'ni vegetatsiyaning sakkizinchchi yilida 96,7% ni, to'qqizinchchi yilda esa, 95,2% ni tashkil etgan. O'rtacha uch yildagi meva tugish foyizi 95,6% ni tashkil etgan. Tabiatdagiga nisbatan qariyb, 20% ga ko'p. Ushbu yuqori natijalar tajriba

maydoni tuprog'ida biogumus hamda namlikni yetarli bo'lganligi ya'ni agrotexnika ishlarini olib borilganligi bilan izohlanadi.

Xulosa :

B. multifida ning mevasi ko'sakcha, meva tugish %i tabiatda 75,5% ni, tajriba maydonida esa, 95,6% ni tashkil etadi. Urug' hosildorligi tabiatda 4,830 kg/ga bo'lib, tajriba maydonida o'simlik tuplari soni ko'pligi, agrotexnika ishlovleri hisobidan ancha yuqori 992,5 kg/ga ni tashkil etadi. Ekish normasini 8 – 9 kg/ga ekanligini hisobga olsak, 1 ga dan olingan urug' 110,27 – 124,06 ga maydonga etadi.

FOYDALANIGAN MANBALAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Пк-4670-Сон 10.04.2020-сонли карори. <https://lex.uz/docs/4785256>
2. Islomov B. S., Hasanov M. A Botanika. Darslik. -Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. 415-416 b.
3. Хожиматов О. К., Исламова З. Б. АНАЛИЗ АМИНОКИСЛОТНЫХ СОСТАВ, СИСТЕМАТИЧЕСКАЯ РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ВИДОВ РОДА BIEBERSTEINIA //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 395-401.
4. Исламов Б. С., Исламова З. Б. БИОЛОГИЯ СЕМЯН КУЗИНИИ ТЕНЕВОЙ (COUSINIA UMBROSA BUNGE) //Современная наука: перспективы, достижения и инновации. – 2020. – С. 39-47.
5. Bustonovna I. Z. STUDYING THE BIOLOGY OF BIEBERSTEINIA MULTIFIDA DC //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 4.
6. Bustonovna I. Z., Normuratovna M. G. BIEBERSTEINIA MULTIFIDA BIOLOGY OF DC AS A PROMISING MEDICINAL PLANT. LITERATURE REVIEW PART 2 //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 3.
7. Islamova Z. B. THE YILD OF BEANS USING MINERAL FIRTILIZERS AND NITROGEN //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 234-236.
8. Rahmonov, O.; Szypuła, B.; Sobala, M.; Islamova, Z.B. Environmental and Land-Use Changes as a Consequence of Land Reform in the Urej River Catchment (Western Tajikistan). Resources 2024, 13, 59. <https://doi.org/10.3390/resources13040059>
9. Z. B, . I. (2024). Biebersteinia Multifida as a Valuable Medicinal Plant of Uzbekistan. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 4(2), 305–308. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/2474>
10. Исламова Зебинисо Бустановна, & Абдурашидов Асилбек Абдурашидович. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA- ЦЕННОЕ ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 163–167. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/15026>

11. Islamova Zebiniso Bustonovna, & Murodova Dilnoza Yulchi Kizi. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA MICROELEMENT COMPOSITION AND APPLICATION IN FOLK MEDICINE. *Scientific Impulse*, 2(19), 45–49. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15135>
12. Исламова, З. Б. (2024). ИССЛЕДОВАНИЕ BIEBERSTEINIA MULTIFIDA. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(3), 26-31.
13. Islamova, Z. (2023). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA DC. NI MADANIYLASHTIRISH VA MUHOFAZA QILISH. Iqlimning davom etayotgan o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o‘rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari, 26-30.
14. Islamova, Z. B. (2024). Biebersteinia Multifida as a Valuable Medicinal Plant of Uzbekistan.